

## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INDIVIDUAL TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Abdullayeva Gulasal Urol Qizi*  
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*  
*Boshlang'ich Ta'lim Fakulteti Talabasi*  
<sup>1</sup>*Matlibov Jamshidbek Yahyo o'g'li,*  
<sup>2</sup>*Abdullayeva Gulasal Urol qizi*  
<sup>1</sup>*CHDPU Boshlang'ich ta'lim tyutori*  
<sup>2</sup>*CHDPU Boshlang'ich ta'lim talabasi*

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada Boshlang'ich ta'limda individuallashtirilgan o'qitishning o'quvchilarga qay darajada foydali ekanligi haqida so'z boradi. Hozirgi kunda individual o'qitish juda ham rivojlanib bormoqda. Shu boisdan individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Individual, Standard, Individual yondashuv, Printsipalar, Interfaol metodlar, Texnologiya, Interaktiv

Ta'limning globallasuvi, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilayotgani ta'lim muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonining faol sub'yektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu doirasida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. Ertangi kuniga befarq bo'lmagan, yorug' va farovon kelajakni yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa o'quvchi dunyoqarashi, tafakkur doirasi shunchalik takomillashadi va rivojlanadi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limga qo'yilayotgan davlat talablariga muvofiq, o'quv-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi hamda javobgarligini his etadigan shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ma'lumki, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlash –zamonaviy o'quv jarayonida jadallashib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tahsil oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini

taminlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin.

### **Individual yondashuv bu:**

1. Guruhdagi o'quvchilar bilan ishlaganda, o'quv tarbiyaviy ishlar bilan shug'illanganda, har bir o'quvchi bilan alohida ishlaganda ularning shaxsiy faoliyatlari har doim o'qituvchi diqqatida bo'lishi kerak:

2. O'qituvchi o'quvchi bilan suhbat qurganda har doim uning o'ziga xos xususiyatini, fikrini, qiziqishini inobatga olish kerak:

3. Ta'lim jarayonida ham uning qiziqishlari imkoniyatlari, qobiliyatlari va bilimlarini hisobga olish kerak.

4. Pedagogik, psixologik jarayonlarni olib borish o'quvchining shaxsiy rivojlanishini oshirishi ko'zda tutish lozim:

Individuallashtirilgan ta'lim printsiplari. Individuallashtirish - o'quv jarayonining bosh strategiyasidir.

Individuallashtirilgan ta'lim - o'quv jarayonini qiziqarli bo'lishini, samaradorligini, harakatchangligini va sifatini ta'minlaydi.

- Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumiy o'quv ko'nikmasini, malakasini, bilimini oshiradi, rivojlantiradi. - Individuallashtirilgan ta'limda har doim bilim, ko'nikma, malaka olish o'quvchining qiziqishi, Istak-xohishi bilan bo'ladi.

- Har bir o'quv predmetini, jarayonini, o'qitishni, individuallashtirish tufayli amalga oshirilgan natijani kafolatlaydi.

**Individuallashtirilgan o'qitish maqsadi** - bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi. Individual o'qitish texnologiyasining afzalligi – pedagogik jarayonning o'quvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda o'quvchini bilim olish darajasining doimiy monitoringi amalga oshiriladi, zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi va o'ziga xos individual yondashuvga amal qilinadi.

“Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida o'quvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Treningni individuallashtirish deganda quyidagilar tushuniladi: 1) o'quv jarayonini tashkil etish, unda usullar, uslublar, o'rganish tezligi talabalarning individual xususiyatlari bilan belgilanadi, har bir o'quvchining potentsial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga imkon beradi; 2) turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy-boshqaruv individual yondashuvni ta'minlaydigan hodisalar.

Individual ta'lim texnologiyasi bu - o'quv jarayonida o'qituvchining faqat bitta o'quvchi yoki o'quvchining adabiyotlar, kompyuter, televideniya, radio va boshqa o'quv vositalari bilan hamkorligi asosida dars materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim.

**Endi mamlakatimiz maktablarida foydalanilayotgan ta'lim modeli bilan tanishamiz:**

**Passiv usul.** O'quvchi o'qituvchining so'zidan, aytib berishi, hikoya qilib berishi, ma'ruzasi, og'zaki tushuntirishi, bayon etishidan o'quv materiallarni eshitadi, ko'radi, o'zlashtirishga harakat qiladi. O'quv materiali uy vazifalarni qo'llanma, masala, mashqlar to'plami, darsliklardan o'qib o'rganiladi. Bu jarayonda o'quvchi bilan o'qituvchi orasida muloqat, aloqalar munosabatlari tizimli o'rnatilmagan. O'quvchi o'z darajasida – qobiliyali, qiziqishi, istak, hoxishi asosida o'zlashtiradi. Unda ta'lim mazmunini standartlar darajasida o'zlashtirish kafolatlanmaydi.

**Faol usul.** An'anaviy usuldan keng foydalaniladi. O'qituvchi ta'lim mazmunini bayon etishda bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma materiallar yordamida ta'sirchan qilib tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan Nazoratfikir almashadi. Muloqat o'rnatadi. Ijodiy ishlar berish orqali mashqlar yechadi. Uy ishlarini ham mustaqil ishlash, takrorlash orqali amalga oshiradi. Ta'lim mazmunini bir muncha yuqori o'zlashtirishga erishadi.

**Interfaol usul.** O'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlari uchun ijodiy muhit, o'zaro axborot berish va olish uchun sharoit yaratadi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muxokama etadilar va yechadilar, vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida o'z bilimlarini bir – birlariga namoyish etadilar. Bir – birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Chizmalar, yozma konspektlar yuritadilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflaridek xis etadilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. Yana qo'shimcha ma'lumotlar to'plash uchun qo'shimcha adabiyotlarga, internet orqali ma'lumotlar to'plashga kirishadilar.

Endi interfaol metodlarga batafsilroq to'xtalamiz.

**Interfaol metodlar** – shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqat va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir.

“Interaktiv” so'zi ingliz tilidan olingan “Interakt”, ya'ni “Inter” – o'zaro, “akt” – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqati asosida kechadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi.

O'quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy xissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiyligni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi.

Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Dialog asosida kechgan jarayonlarda o'quvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosda yechimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o'zaro muzokaralarda erkin bayon qilishga o'rganadi va shunday ko'nikmalar shakllanib boradi.

Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin.

Xulosa shundaki, bu o'qitish texnologiyasini amalga bajarishda individual o'quv topshiriqlarini bajarishga alohida diqqatimizni qaratamiz. Chunki o'quv topshiriqlari bilangina o'quvchilarda ijodiy, mustaqil va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda darsda faol ishtirok etish, diqqatni jamlash, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish, shuningdek o'z g'oyalari fikrini hurmat qilish va tinglash kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Bu borada o'qituvchi har bir darsga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi, iqtidor va iste'dodni rag'batlantirish hamda aql-zakovotini ayamasliklari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni
2. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma'ruzalar matni. Tuz.:A.X.Qosimov, F.A.Holikova - T.: TATU, 2004.
3. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva. –T.: Chopon NMIU, 2012. 90-bet.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. 168-bet.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya – T.: OPI, 2003.
6. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002-yil, 3-son, 3-11 betlar.
7. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
8. Pedagogik texnologiya N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva. -T.: Chopon NMIU, 2012. 90-bet.
9. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Toshkent: 2015. 168-bet.
10. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'l. D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013.